



THE THEME OF WOMEN IN THE WORKS OF INDIAN WRITERS OF THE 19TH-20TH CENTURIES

Maxamadzodjaveva Umida Turakhodjavevna

Teacher, Uzbekistan State University of World Languages

umidamaxamadzodjaveva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17630043>

ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 14th November 2025

Online: 17th November 2025

KEYWORDS

gender equality, women's rights, Indian women, social issues, caste system, feudal society, feminist ideas, evolution of the image of women

ABSTRACT

During the 19th–20th centuries, the issue of gender equality in India became one of the most significant aspects of socio-political development. In this period, extensive efforts were made to protect women's rights, ensure social justice, and establish equality between genders. This process played an essential role in India's modernization, the formation of democratic values, and the achievement of sustainable social development.

ТЕМА ЖЕНЩИН В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИНДИЙСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ XIX–XX ВЕКОВ

Махамадзоджаева Умида Тураходжаевна

Преподаватель, Узбекский государственный университет мировых языков

umidamaxamadzodjaveva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17630043>

ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 14th November 2025

Online: 17th November 2025

KEYWORDS

гендерное равенство, права женщин, индийские женщины, социальные проблемы, кастовая система, феодальное общество, феминистские идеи, эволюция образа женщины

ABSTRACT

В XIX–XX веках в Индии вопрос гендерного равенства стал одной из наиболее актуальных направлений социально-политического развития. В данный период были предприняты широкомасштабные движения, направленные на защиту прав женщин, обеспечение социальной справедливости и утверждение равенства между полами. Этот процесс проявился как важный фактор модернизации индийского общества, формирования демократических ценностей и устойчивого развития.

XIX-XX ASR HINDISTON ADIBALARI ASARLARIDA AYOLLAR MAVZUSI

Maxamadxodjaveva Umida Turaxodjavevna

umidamaxamadzodjaveva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17630043>



ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 14th November 2025

Online: 17th November 2025

KEYWORDS

gender tenglik, ayollar huquqlari, hind xotin-qizlari, ijtimoiy muammolar, kasta tizimi, feodal jamiyat, feministik g'oyalar, ayol obrazi evolyutsiyasi

ABSTRACT

XIX–XX asrlarda Hindistonda gender tenglik masalasi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur davrda ayollar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda jinslar o'rtasidagi tenglikni qaror toptirish yo'lida keng qamrovli harakatlar amalga oshirildi. Bu jarayon Hindiston jamiyatining modernizatsiyasi, demokratik qadriyatlarining shakllanishi va barqaror rivojlanishining muhim omili sifatida namoyon bo'ldi.

Hindiston adabiyotida muhim ijtimoiy muammo – hind xotin-qizlari ahvoli ko'pgina hind yozuvchilarini, ayniqsa, adibalarini anchadan beri tashvishlantirib kelgan bo'lib, Roziya Sajad Zahir, Subxadra Kumar Chauhan, Rashida Jahon, Sodiqa Begam, Amrita Pritam, Mannu Bhandari kabi adibalar bu mumammoga o'z asarlarida jiddiy qarab kelganlar. Ular o'z roman va hikoyalarida oila va jamiyatda hind xotin-qizlarining o'rni haqida so'z yuritganlar.

Hindistonning bu mashhur adibalari xotin-qizlarni himoya qiladilar, chunki hind ayollarining jamiyatdagi doimo huquqsiz, kamsitilgan ahvoli Hindistonning milliy muammolaridan biri edi. "Hindistonning ko'p asrluk tarixi davomida ayollar kasta tizimi va diniy urf odatlar mavjud bo'lgan feodal jamiyat sharoitida hayotning butun qiyinchiliklarini o'zlarida sinab kelganlar"¹

Ajoyib adiba Roziya Sajad Zaxirning "Fohishaning qizi" romani mavzusi ham ayollarning ahvoli haqidadir. Mazkur "asarda onasi fohisha bo'lgan qizning ona kasbini davom ettirishi kerakligi haqidagi bir chiroyli qiz hayoti ochib berilgan bo'lib, adiba hind jamiyatidagi shavqatsiz an'analarga qarshi chiqadi"² Mazkur roman Hindiston mustaqilligining siyosiy va iqtisodiy tiklanish davrida yaratilgan.

R.S.Zaxir bu romanda Hindiston jamiyatidagi jaholatparast an'analarga qarshi chiqqan Yusuf, Rafiq kabi obrazlarni ochib bergan. Ular nafaqat oilada ayollar teng-ligi, balki yangi Hindistonni qurishda faol va teng ishtirok etuvchi ayollar tarafdoridirlar. Yusuf, Rafiq va ularning do'stlari asrlar davomida to'rt devor orasida o'tirgan, ularning mavjudligi hech kimni qiziqtirmagan, Hindistonning oddiy mehnatkash xotin-qizlari jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lishini xohlaydilar.

Boylar qo'lida ko'pgina xotin-qizlar arzon qo'g'irchoq bo'lib keldilar. Ulardan biri Suman. U onasining fohishaxonasidan qutilib chiqishi og'ir bo'lgan. Lekin Suman o'z ona uyidan chiqib ketishga kuch topadi, u bir o'zi yashab, mehnat qilishni afzal ko'radi, u taqinchoqlarga ko'milib, yorqin rangli va chiroyli liboslar kiyish, boyvachcha erkaklar qo'lida qo'g'irchoq bo'lishdan voz kechadi. U o'z ustozini Ram Dinning ona kasbini albatta

¹ Salimova F.S. Женщины независимой Индии. Ташкент. 1979. –С. 4.

² Polinova O.S. Realizm v sovremennom indiyском romane (na primere xindi, urdu i bengalskly literatur). Tashkent. 1984. –С. 90-91.



davom ettirish lozim emasligi, bu haqida qayg'urmasligi, boshqalar oldida fohishaning qizi ekanligidan uyalmasligi haqidagi nasihatlarini doimo yodda tutadi. Ushbu qahramon juda jasoratli, o'z manfaatini ko'zlamaydigan, aqlli, mehnatkashdir. Unga o'tmish bilan kurashishda, fohishaxonadagi firibgarlarni fosh etishda va odamlarga ishonch, ijtimoiy o'zgarishlarni anglashda Yusuf, Rafiq va Solmon yordam beradilar. Ular to'g'ri yo'ldan ketishda, ishlash va mehnat qilishda qizni qo'llab-quvvatladilar. Faqat o'zi haqida o'ylamagan Suman badavlat odamning Nafis ismli qiziga yordam berib, unga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu ochiq ko'ngil, soddadil Nafis lavozim va pul uchun har narsaga tayyor bo'lgan Jamshidning to'ridan chiqib ketishga muyassar bo'ladi. Nafis Sumandan Jamshid haqidagi barcha haqiqatni bilib oladi. U Jamshidning yaramas ishlarini, ya'ni o'z xo'jayinlarini hursand qilish maqsadida fohishaxonada turli yo'llar bilan ayollarni aldashi kabilarni o'z ko'zi bilan ko'radi.

Suman M.Rusvaning "Raqqosa" romanidagi qahramon Umraodan o'z mustaqilligi, jasoratligi bilan farq qilib, Suman nafaqat so'z bilan, balki o'z ishlari bilan boshqalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Biroq, u ham dastlab bir o'zi yashaganligi uchun qo'rqqan, odamlar oldida uyalgan.

Agar R.S.Zaxir romani mavzusi o'z baxti, o'z teng huquqi uchun kurashayotgan ayol bo'lsa, adibaning "Havo rang tugun" hikoyasi mavzusi siyosiy faol bo'lgan ayol hayoti hisoblanadi. Bu qahramon tinchlik tarafdori, butun dunyo baxti uchun kurashuvchi sifatida namoyon bo'lib, u endi o'sha savodsiz, nochor va huquqsiz ayol emas, u yer yuzida tinchlikning yuksalishiga xavf solgan narsalarni anglab yeta boshlaydi. U o'z vatanida va butun dunyoda onalar o'z oilalari bilan baxtli hayot kechirishlarini, tinch mehnat qilishlarini xohlaydi. Ayol o'z farzandi bilan tinchlik haqidagi murojaatnomaga imzo chekadi, namoyish va mitinglarda ishtirok etadi. Bu hikoyani o'qiganimizda chuqur to'liq inlanamiz. Hind ayoli jamiyatning faol a'zosiga aylandi, qurolsizlanishga, uning ko'p jafoga chekkan mamlakatida urush yovuzliklari bo'lmasligi uchun qurollanish poygasini to'xtatishga qarshi chiqa boshladi.

Mahoratli urdu yozuvchisi Rashida Jahon o'z asarlarida jamiyatdagi beva ayollarning og'ir ahvolini ochib beradi. Uning "Xudo qani?" hikoyasida uchta farzandi bilan beva qolgan ayol o'zining barcha to'plagan mablag'larini oxirigi tangasigacha qadar erining janozasiga ishlatadi. U erining janozasida uydagi barcha narsalarni yeb tugatgan va yana norozi bo'lgan braxmanlarni juda yomon ko'radi. U miningit bilan kasallangan o'g'lini o'limdan saqlab qola olmaydi. U puli yo'qligidan dori-darmon sotib ololmaydi, o'g'lini shifoxonaga olib borolmaydi. Eri ko'p yillar davomida sadoqat bilan xizmat qilgan xo'jayin uyalmasdan, o'z insoniy qadriyatini yo'qotib, pul so'rab borgan ayolga pul bermaydi. Xo'jayin ayolning eri unga ko'p yillar davomida sodiqlik bilan xizmat qilganini yoddan chiqargan. Ayol nima uchun xudo faqat boy-larga yordam berib, kambag'allarga yordam bermasligi haqidagi xayollariga javob topa olmaydi. Unga cherkovga kirishni ham ta'qiqilab qo'ydilar, chunki bu beva ayol cherkovga kirsam, hurmatli braxmanlarni xarom qilgan, bulg'agan bo'ladi. Ayol shuning uchun ham braxmanlarni yomon ko'radi.

Ushbu hikoyada qoloq va soddadamlardan foydalanib, kambag'al odamlarning butun narsalarni yeb tugatishga tayyor diniy ulamolarning g'arazli niyatlari haqida hikoya qilinadi.



Hindistonning mashhur shoirasi Subxadra Kumari Chauhan nafaqat o'zining vatanparvarlik she'rlari bilan, balki mohirona yozilgan hikoyalari bilan ham mashhurdir. Uning hikoyalarida Hindiston mustaqilligiga qadar hind jamiyatining ilg'or tabaqa-larini jo'nbushga keltirgan masalalar ko'tarilgan. Uning hikoyalarining mavzusi mustaqillik uchun kurash, oddiy xalqning huquqsiz hayoti, ayollarning achinarli ahvoli hisoblanadi. 1931-yilda uning "Disxansilik Rani" nomli poemasi xindiy yozuvchilari anjumanida mukofot bilan taqdirlandi.

S.K.Chauhaning hikoyalari qahramonlari oddiy hind ayollari, onalari, xotinlari, singillari, kelinlari, bevalari hisoblanadi. Bu barcha ayollar adibaning "Tilla taqinchoq" va "Xoli" hikoyalaridagi oliy tabaqa ayollaridan farqli o'laroq halol, vijdonli, mehnatkash ayollardir.

"Fohishaning qizi" ("वेश्याकीलाड़की") hikoyasida induizm diniy aqidalariga asoslangan o'rta asr ahloq qoidalari onasi cherkovda raqqosa bo'lgan Chxayu degan qizni nobud qilishi ko'rsatib berilgan. Adiba "hurmatli" braxmanlar cherkovga faqat ibodat qilishdan rohatlanish uchun kelmasliklarini ochiqdan-ochiq yozadi.

S.K.Chauhan ijodida xotin-qizlarni ozod qilish uchun kurash mavzusi insonparvarlik g'oyalari uchun kurash mavzusining davomi sifatida keladi. Adiba hind ayollarining turli-tuman ijtimoiy tiplarini va ularning qayg'uli hayotlarini haqqoniy manzaralarini chizadi³

Ayol mavzusini tasvirlagan yana bir hind adabiyoti vakili mashhur panjob yozuvchisi A. Pritam hisoblanadi. Biz A. Pritamni nafaqat mahoratli shoirasi sifatida-da, balki publistik va adabiyotshunoslik ocherklar, maqolalar hamda mahoratli hikoya va romanlar muallifi sifatida ham bilamiz. A.Pritamning nasrda ham, she'riyatda ham asosiy mavzusi ayollardir. Uni sevgi-muhabbat, nikoh, er-xotinlik baxti, oila va jamiyatda ayollarning o'rni kabi muammolar qiziqtiradi. A.Pritam o'z romanlarida ayollarning ichki dunyosini, uning ruhiyatini ochib berib, hind ayollarining ozodligi uchun kurashadi.

Adiba o'z qahramonlarini xuddi uning o'zi ularning qismatiga tushgan narsalarni boshidan o'tkazgandek shunday zavqlanib va samimiy hikoya qiladi. Uning "Doktor Dev" (1949), "Uya" (1961), "Bir masala" (1959) kabi romanlari o'rta tabaqa ayollarining ahvoriga hamda adibaning "Zindon" (1950), "Rangdan qolgan iz" romanlari oddiy qishloq qizlari taqdiriga bag'ishlangan⁴. Muallif hali ayollar ongida eskilik sarqitlari kuchli ekanligini, mana shu sarqitlar ozodlik va baxt uchun faol kurashchi bo'lishga xalaqit berayotganligini namoyon etgan.

Adiba Mannu Bxandari hikoyalarida erkak va ayol munosabatlariga katta e'tibor beriladi. Muallif ayol ongini turli darajalarini batafsil tadqiq etadi. M.Bxan-darining asosiy qahramoni – o'rta sinf ayoli, u ijtimoiy va ma'naviy konservatizm-dan ozod bo'lishni xohlaydi, erkak bilan teng ravishda o'z shaxsini rivojlantirishga harakat qiladi va o'z mavjudligini ahamiyatli qilishga intiladi. Bxandari ayol ongini tasvirlash va tahlil qilishda boshqa yozuvchilardan ustun bo'lgani aniq, ammo u o'z qahramon erkaklariga optimizm va kuchni bera olmadi, ularning deyarli hammasi harakatsizdir. Muallif ayollarni sirli

³ Yermakova S. Otrajeniye natsionalno-osvoboditelnoy borby indiyaskogo naroda v tvorchestve Subxadri Kumari Chauhan. Tashkent. 1976. –S. 78.

⁴ Xodjayeva T.A. Jenskiy obraz v rannix romanax A Pritam.// Vostokovedeniye. Tashkent.1981.-S.9.



istaklarini berkitishga harakat qilmaydi. Uning ayol shaxsi tubiga qaratilgan nigohi zamonaviy yozuvchi ayollar qatorida birinchi o'rinni egallashiga ko'maklashadi.

Adibaning "Yutqizilgan garov" hikoyasi zamonaviy ma'lumotli hind qizi haqida. Hikoya kolleжда uch qiz- Asha, Nalini va Murla – o'qigan davridan boshlanadi. Ular boshqa qizlar orasida o'z aqli-farosati, o'qishga intilishi va sidqidilligi bilan ajralib turar edi. Ularning har biri o'z fikriga ega edi. O'qishlari tamom bo'lgani-dan so'ng, avval Nalini keyin Asha turmushga chiqadilar. Murla esa, turmush qurishayol-dagi shaxsni o'ldiradi degan fikrda bo'lib, Murla yolg'iz qoldi. Uning hayotida hech nima o'zgarmadi, u universitetni eng a'lochi bitiruvchilari qatorida edi, biroq turmushga chiqishga shoshilmadi va bir nechta yosh yigitlarga rad javobini berdi. U universitetda ilmiy ishni olib borishni davom etdi. Bu asarda Mannu Bxandari ayol va nikoh muammosiga o'z munosabatini ifoda etadi. Yosh qiz albatta, turmushga chiqishi lozim, turmush qurish ayol borlig'i, mavjudligiga, xayotiga ma'no kasb etadi, Mannu Bxandari sevgi va kelishuv asosidagi nikoh tarafdorlari bo'lib, oila baxti va farovonligini asosini aynan shunda deb bilgan.

Ayolga azalda onalik hissi, mehri berilgan. Ayol uchun obro'-hurmat va shon-shuhratdan ko'ra uy, oila muhimroqdir deb hisoblaydi Mannu Bxandari. Yillar o'tib Murla qanday xato qilganini tushundi, uni hayotga munosabati ham o'zgardi. "Yutqi-zilgan garov" hikoyasida Murla, Asha va Nalini, ya'ni uchta obrazni qizikarli evolyu-siyasi rivoji tasvirlangan. Hikoyada markaziy o'rnini Murla egallaydi. Bu harakat-chan va irodali qiz avvalambor, o'z erkinligini qadrlaydi, uning xarakteri dugona-lari turmushga chiqishga nisbatan bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi, Murlaning fikricha, turmushga chiqib, bola tug'ib ayol quyiroq ahvolga tushadi, uning qiziqishlar doirasi torayadi, u mustaqil fikrlash, harakat qilish imkoniyatiga ega emas.

Shunday qilib, hind xotin-qizlari ahvoli ko'pgina hind yozuvchilarini, ayniqsa, adibalarini anchadan beri tashvishlantirib kelgan bo'lib, Roziya Sajad Zahir, Subxadra Kumar Chauxan, Rashida Jahon, Sodiqa Begam, Amrita Pritam, Mannu Bxandari kabi adibalar bu mumammoga o'z asarlarida jiddiy qarab kelganlar. Ular o'z roman va hikoyalarida oila va jamiyatda hind xotin-qizlarining o'rni haqida so'z yuritganlar. Hindistonning bu mashhur adibalari xotin-qizlarni himoya qiladilar, chunki hind ayollarining jamiyatdagi doimo huquqsiz, kamsitilgan ahvoli Hindiston-ning milliy muammolaridan biri edi. Hindistonning ko'p asrlik tarixi davomida ayollar kasta tizimi va diniy xurofatlar mavjud bo'lgan feodal jamiyat sharoitida hayotning butun qiyinchiliklarini o'zlarida sinab kelganlar. Zamonaviy hind yozuvchilari asarlarida ayol mavzusi, oilaviy munosabatlardagi muammolar masalalari hind adabiyotshunoslaridan Xazari Prasad Dvivedi⁵, Rashid Axmad Siddiki⁶ va boshqalar, xind sharqshunoslari

⁵ XazariPrasadDvivedi. Literatura xindi. Deli. 1955.

⁶ Rashid Axmad Siddiki. Literatura urdu // Indiyaskaya literatura segodnya. Bombay. 1947.



S.K.Bannerji⁷, N. Glebov va A.Suxochev⁸, V.Novikova⁹, I.Serebryakov¹⁰, I.Товстых¹¹, Ye.P. Chelыshev¹², N.Petrunicheva¹³, Ye.Ya. Kalinnikova¹⁴ va boshqalar¹⁵, o'zbek sharqshunoslaridan O.S. Polinova¹⁶ T.A.Xodjayeva¹⁷ va U.U.Muhibova-lar hind, bengal, urdu, panjob va Hindistonning boshqa xalqlari adabiyoti, xususan nasri, yozuvchilari haqida kitob, risola va ilmiy maqolalarida bu mavzu yuzasidan to'xtalib o'tganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. 2005.
2. Kalinnikova Ye.Ya. Angloyazychnaya literatura Indii. Moskva. 1974.
3. Kalinnikova Ye.Ya. Staroye i novoye ryadom. K kn: Problemy indiyskogo romana. Moskva.1974.
4. Ocherki istorii literatur Indii (X-XXv) Moskva.2014
5. Serebyakov I.D. Literatura narodov Indii.. Moskva. 1985.
6. Xodjayeva T.A. Zamonaviy Hindiston xalqlari adabiyoti. Toshkent2010.
7. Xodjayeva T.A. O'quv-uslubiy majmua. Toshkent. 2017.
8. Xudoyberdiyev I. Adabiyotshunoslikkakirish. Toshkent.2008.
9. Chelіshev Ye.P. Sovremennaya indiyskaya literatura. Moskva.1981.
10. Indiyskaya literatura vchera i segodnya. Moskva. 1989.

⁷ Bennerdji S.K. Bengalskaya literatura.//Istoriya indiyskix literatur. Moskva. 1964

⁸ Glebov N., Suxochev A. Literatura urdu. Moskva. 1967.

⁹ Novikova V. Prozaiki sovremennoy Bengali//Literatura Indii. Moskva.1958; Bankimchondra Chottoadxay. Jizn i tvorchestvo.Leningrad. 1958.

¹⁰ Serebryakov I. Pendjabskaya literatura. Moskva. 1963.

¹¹ Товстых I. Bengalskaya literatura. Moskva 1965.

¹² Chelыshev Ye.P. Literatura xindi. Moskva. 1968; Sovremennaya indiyskaya literatura. Moskva. 1981.

¹³ Petrunicheva Z.N. Vliyaniye angliyskoy prozy na roman telugu//Problema indiyskogo romana. Moskava 1974.

¹⁴ Kalinnikova Ye.Ya. Staroye i novoye ryadom. K kn: Problemy indiyskogo romana. Moskva. 1974; Angloyazychnaya literatura Indii. Moskva. 1974.

¹⁵ Vzaimodeystviye kultur Vostoka i Zapada. Moskva. 1991.

¹⁶ Polinova O.S. Realizm v sovremennom indiyskom romane(na primere xindi, urdu i bengalskly literatur). Tashkent. 1984.

¹⁷ Xodjayeva T.A. Jenskiy obraz v rannix romanax A Pritam.// Vostokovedeniye. Tashkent.1981; Panjob adabiyoti T., 2007; Zamonaviy Hindiston xalqlari adabiyoti. T., 2010; Panjob adabiyoti. T., 2007; Zamonaviy Hindiston xalqlari adabiyoti. T., 2010;